

Dorivor o'simliklar sohasida O'zbekiston–Xitoy ilmiy muloqoti bo'lib o'tdi

// 22.06.2026

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/dorivor-o-simliklar-sohasida-o-zbekiston-xitoy-ilmiy-muloqot>



Poytaxtimizda **“Dorivor o'simliklarni yetishtirish va ulardan foydalanishning dolzarb masalalari”** mavzusida O'zbekiston–Xitoy xalqaro simpoziumi bo'lib o'tdi.

Anjumanda O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasining olimlari, professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilari, farmatsevtika hamda kimyo sanoati vakillari ishtirok etib, dorivor o'simliklarni chuqur o'rganish, ularni zamonaviy texnologiyalar asosida qayta ishlash va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish masalalarini muhokama qildilar. **Simpoziumda “O'zkimyosanoat” AJning Innovatsiya va yangi texnologiyalarni joriy etish bo'limi vakillari ham faol ishtirok etib, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, innovatsion yechimlar asosida yangi mahsulot turlarini yaratish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi.**



Tadbir ikki mamlakat olimlari va mutaxassislari o'rtasida tajriba almashish, ilmiy izlanishlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish hamda istiqbolli qo'shma loyihalarni shakllantirish uchun muhim muloqot maydoni bo'ldi.

Bugungi kunda “O'zkimyosanoat” AJ tizimida yuqori texnologik, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini sanoatga joriy etish va mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.



Xalqaro simpozium mazkur yo'nalishlardagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish va mamlakatimiz kimyo hamda farmatsevtika sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

